

## SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT  
TIBBIYOT UNIVERSITETI  
NASHRI

## SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN



## O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

**Qadrli do'stlar!**

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda o'z hayotini dunyodagi eng mashaqqatli va sharafli ishga bag'ishlab kelayotgan barcha O'zbekiston pedagoglarini O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami bilan samimiy muborakbod etaman.

Biz ustoz zotini azaldan otaday ulug' deb biladigan, hamisha boshiga ko'tarib e'zozlaydigan ma'rifatparvar xalq farzandlarimiz.

Har bir inson hayotda qanday yutuqqa erishgan bo'lsa, ularda qadrdon o'qituvchi va ustozlarining beqiyos hissasi borligini umrbod minnatdorlik bilan eslaydi.

Shaxsan men o'qituvchi deganda – zamon bilan hamqadam bo'lgan jonkuyar, ziyoli shaxsni, maktab deganda – bilim va ma'rifat yog'dusi taralib turadigan, Uchinchi Renessans poydevori qo'yiladigan tabarruk maskanni ko'z oldimga keltiraman.

Biz, ota-onalar o'zimizning eng katta boyligimizni – aziz farzandlarimiz kelajagini siz, muhtaram ustozlar qo'lga ishonib topshirganmiz. Shu ma'noda, buyuk shoirimiz Abdulla Oripovning: "Sizdan boshlanadi asli tafakkur", degan so'zlarida teran hayotiy hikmat bor.

Bugungi kunda fidoyi ustoz va murabbiylarning ezgu xizmatlari tufayli yoshlarimiz har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetayotgani, fan va texnika, madaniyat va san'at, sport sohalarida qanday katta marralarni qo'lga kiritayotgani barchamizga cheksiz quvonch baxsh etadi.

Shu borada birgina misol keltirmoqchiman. O'tgan o'quv yilida yoshlarimiz xalqaro va mintaqaviy fan olimpiadalarida 45 ta oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritgani ta'lim sohasidagi islohotlarimiz samarasiga yana bir dalildir.

Barchamizga ayonki, muallimning obro'-e'tibori – bu avvalo millatning, butun xalqning obro'-e'tiboridir. Shu bois, biz keyingi yillarda o'qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o'rnini va ta'sirini kuchaytirish, ta'lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish bo'yicha ulkan islohotlarni amalga oshirmoqdamiz.

Pedagog xodimlarni majburiy mehnat va turli jamoatchilik ishlariga jalb qilish holatlariga chek qo'yilgani, ta'lim muassasalarida qog'ozbozlikka barham berilayotgani bugun o'z ijobiy natijasini ko'rsatmoqda.

Olis hududlardagi maktablarga dars berish uchun jalb etilgan yuqori toifali o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgani bu boradagi yana bir muhim qadam bo'ldi.

Mamlakatimizda farzandlarimizni go'daklik davridan to kamolot yoshiga qadar har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning hayotda munosib o'rnini topishiga xizmat qiladigan uzluksiz va samarali tizim yaratilmoqda.

Xususan, keyingi 6 yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5,5 barobar ko'payib, 28 mingdan oshgani va qamrov darajasi 70 foizga yetgani ayniqsa e'tiborlidir.

Shu o'rinda, 2022-2026 yillarda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur qabul qilingani, maktab ta'limini isloh qilish bo'yicha Milliy kengash va uning hududiy bo'limlari tashkil etilganini alohida ta'kidlash zarur.

Ayni vaqtda O'zbekiston tarixida birinchi marta boshlang'ich sinflarda fanlarni o'zlashtirish darajasini aniqlaydigan nufuzli xalqaro baholash dasturlari yo'lga qo'yildi.



ПРЕЗИДЕНТ  
ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ  
ЎЗБЕКISTON ҲЎҚИТУВЧИ  
ВА МУРАББИЙЛАРИГА  
БАЙРАМ ТАБРИГИ

Joriy yilda davlat budjeti hisobidan barcha zamonaviy sharoitlarga ega 51 ta yangi maktab bunyod etildi. Shuningdek, 1660 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, 119 mingdan ortiq o'quvchi o'rnini yaratildi.

Shu bilan birga, 465 ta maktab uchun qo'shimcha o'quv binolari, 115 ta sport zali va maydonchalari barpo qilinganini qayd etish lozim. Ta'lim maskanlariga 35 mingdan ziyod qo'shimcha o'quv jihozlari to'plami yetkazilib, 1 ming 900 ga yaqin maktabning infratuzilmasi tubdan yangilandi. 2,5 mingdan ziyod sinfxona 31 mingta zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlandi.

Yangi o'quv yilidan boshlab respublikamizdagi 137 ta maktabda inklyuziv sinflar tashkil etilishi natijasida nogironligi bo'lgan yuzlab bolalarning faol bilim olishiga sharoit yaratildi.

O'qituvchilarning bilimi va kasbiy mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday chora-tadbirlar tufayli keyingi bir yilda malaka toifasiga ega muallimlar soni 300 mingdan oshgani ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Ayni paytda maktablar uchun zamonaviy o'quv dasturlari va darsliklar yaratish bo'yicha YUNISEF, YUSAID xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlikda, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya kabi rivojlangan davlatlarning tajribali ekspertlari ishtirokida keng qamrovli izlanishlar davom ettirilmoqda.

Keyingi yillarda yurtimizdagi yangi oliy o'quv muassasalari soni qariyb 2,5 barobarga ko'payib, 186 taga yetkazilgani, qabul kvotalari 3,5 barobar ortgani oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda g'oyat muhim rol o'ynamoqda. Bu o'rinda sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida 42 ta nodavlat oliy o'quv yurti tashkil etilgani, xorijiy oliygohlar filiallari soni esa 31 taga yetganini alohida qayd etishni istar edim...

Siz, aziz ustoz va murabbiylar bugun mana shunday o'ta mas'uliyatli jabhada tom ma'noda tarixiy missiyani ado etmoqdasiz. Chunki, Vatan va xalq manfaatini uchun mardona kurashadigan, o'zining qat'iy hayotiy pozitsiyasiga ega, hech kimdan kam bo'lmagan yoshlarni tarbiyalash – haqiqatdan ham g'oyat ezgu va ulug' vazifadir.

Barchangizga shu sharafli yo'lga olib borayotgan olijanob faoliyatingizda va shaxsiy hayotingizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

Xonadonlaringizga doimo tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka yor bo'lsin!

Hamisha sog'-omon bo'ling, aziz ustoz va murabbiylar!

**Shavkat Mirziyoyev,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

**«O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI» BAYRAMI BO‘LIB O‘TDI**

“1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan 5 oktabr kuni universitetda bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbirda universitetning rahbariyati, dekanlar, professor-o‘qituvchilar, tyutorlar hamda talabalar ishtirok etdilar.



Yadullayev Shuxrat  
Xudoyberdiyevich

Bayram tadbirida universitet rektori J.Rizayev tomonidan oliygohning ustuni va yuragi bo‘lgan professor-o‘qituvchilar sharafiga iliq so‘zlar aytilib, faxriy yorliqlar va esdalik sovg‘alari topshirildi. Shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqandda bo‘lib o‘tgan Sammitda ko‘rsatilgan fidoiy mehnatlari uchun universitet jamoasiga tashakkurnoma va esdalik sovg‘a topshirildi.

Bayram sovg‘asi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida universitetimizning “Abu Ali Ibn Sino izdoshlari” talabalar teatr studiyasi tomonidan tayyorlangan taniqli yozuvchi va dramaturglar Lyusyen Keren, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Farmon Toshev asarlari (Shuxrat Sanaqulov inssenirovkasi) asosida rejissyor Shuxrat Sanaqulov sahnalashtirgan “Renessans” (tarixiy drama) spektakli aziz ustozlarimiz e‘tiboriga havola etildi. Zero, muqaddas sahna gardini yutgan iste‘dodli talaba-yoshlar tomonidan ajdodlarimiz siymolarining gavdalanirilishi, bir necha yillar davomida shogirdlariga tibbiyot sohasidan ta‘lim berib kelayotgan professor-o‘qituvchi ustozlarimiz qalbini o‘zgacha faxr tuyg‘usi bilan boyitdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

**USTOZLARGA E‘TIBOR**

Universitet xotin-qizlar maslahat kengashi faollari tomonidan “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan ko‘p yillar universitetda fidoyilik bilan samarali mehnat qilib kelayotgan bir guruh faxriy ustozlar ishtirokida “Ustozlar - ilm bog‘ining bog‘bonlari!” mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

Faxriy ustozlar tomonidan oxirgi yillarda mamlakatimizda ro‘y berayotgan beqiyos o‘zgarishlar, o‘qituvchi va murabbiylarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor, g‘amxo‘rliklar hamda yaratilayotgan shart-sharoitlar, universitetimizdagi yutuqlar, kafedralarda talabalarning bilim olishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va ulardan to‘g‘ri foydalanish zarurligi to‘g‘risida fikrlar bildirildi, yosh avlodga nasihatlar va tavsiyalar berildi.

Uchrashuvlar yakunida bilim va barcha kuchlarini shogirdlariga baxshida qilib, safimizda samarali mehnat qilib o‘rnak bo‘lib kelayotgan faxriy ustozlarimiz bayram munosabati bilan muborakbod etildilar!

**“21-OKTABR – O‘ZBEK TILI KUNI” MUNOSABATI BILAN BAYRAM TADBIRLARI**

“21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni” munosabati bilan Samarqand shahar Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog‘ida buyuk shoir va mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘yish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tantanali tadbirda universitetimiz professor-o‘qituvchilari va talabalar ham ishtirok etdi.

Tadbirda xalqimizning milliyligi, o‘zligi va barcha qadriyatlarini o‘zida jam etgan ona tilimizga e‘tibor bugun har qachongidan-da kuchayganligi, ona tilimiz haqida qonuni 33 yil oldin qabul qilinishi, bu hujjatni davlat tilini rivoji uchun ahamiyati, buyuk shoim ijdodan namunalar o‘qidilar. Talabalar va teatr ijodkorlari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar ishtirokchilarga ko‘tarinki ruh baxsh etdi.

Shu kunning o‘zida universitetning tibbiy pedagogika, hamshiralik ishi va xalq tabobati hamda 2-son davolash ishi fakulteti tomonidan talabalar uchun “21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni” munosabati bilan “Ona tili — millat



ko‘zgusi” bayram dasturi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasini mudiri Aziza Mahmudova o‘zbek tili qonunining qabul qilinishi, milliy ma‘naviyat va ma‘rifat uchun ahamiyati, ona tilini davlat va jamiyatni rivojida o‘mi haqida batafsil tushuntirib berdi. Uchrashuvda “Marjona” bolalar ansambli, universitetni faol talabalar o‘zlarining she‘rlarini o‘qidilar, musiqiy va raqsona chiqishlar namoyish etib barchaga bayram kayfiyatini ulashdilar.

## “ABU ALI IBN SINO VA BUYUK IPAK YO‘LI” I XALQARO ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYASI

tabobati bo‘yicha “Abu Ali ibn Sino va Buyuk Ipak yo‘li” I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi.



Anjumanda O‘zbekiston, Germaniya, Isroil, Hindiston, Janubiy Koreya, Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Malayziya, AQSH, Tojikiston, Turkiya, Rossiya va boshqa xorijiy davlatlardan yetakchi tashkilotlardan ekspert va olimlar xalq tabobati sohasiga oid 50 dan ortiq ma‘ruzalari bilan ishtirok etishdi. Xalqaro anjuman va uning doirasida o‘tkazilgan mahorat darslarida mingdan ziyod zamonaviy va an‘anaviy tibbiyot sohalari mutaxassislari, olimlar, kimyogarlarning hamda farmatsevtlar onlayn va oflayn formatda ishtirok etdi.

Tadbirning ochilish marosimida universitet rektori J.Rizayev, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi farmatsevtika sanoatini rivojlantirish agentligi direktori Sardor Kariyev, “Ibn Sino jamoat fondi” boshqaruvi raisi Nozimxon Maxmudov, O‘zbekiston Tabobat Akademiyasi raisi prof. Ibroxim Asqarov (O‘zbekiston), Eron Islom Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor elchisi Hamid Nayirobodiy, “Gano Excel” xalqaro

korporatsiyasi prezidenti Leou Sun Seng (Malayziya), “Ibn Sino Akademiyasi” prezidenti prof. Sayyid Zillur Rexman (Hindiston), Xalqaro Avitsenna jamg‘armasi prezidenti prof. Mixael Sach (Isroil), MDH iqtisodiy rivojlanish biznes markazi bosh direktori Vadim Ganin (Rossiya), “China-Uzbekistan medicine technical park” bosh direktori, kimyo fanlari doktori S.B.Abdubakiyev (Xitoy) qutlov so‘zlari bilan anjumanni ochib konferensiya ishiga muvaffaqiyatlar tilashdi.

Anjumanning rasmiy ochilish marosimidan so‘ng Samarqand davlat tibbiyot universiteti va “Ibn Sino” jamoat fondi, Daegu Haany universiteti (Koreya), Yevropa tibbiyot assotsiatsiyasi (Germaniya), shuningdek, “Ibn Sino” jamoat fondi va Isroil dorivor o‘simliklar uyushmasi, Toshkent vaktsina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti, Qozog‘iston an‘anaviy va xalq tabobati tibbiyot mutaxassislari milliy assotsiatsiyasi o‘rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Xalqaro konferensiya ishi 4 shu‘bada davom

etdi va “Ta‘lim va xalq tabobati”, “Fan va xalq tabobati”, “An‘analar va xalq tabobati”, “Dorivor o‘tlar va xalq tabobati” kabi yo‘nalishlarda dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida xorijlik mutaxassislardan tomonidan “Xalq tabobatida ekstrakt Ganoderma lucidum mahsulotining roli”, “Azotli geterosiklik birikmalar asosida yangi dori vositalarini ishlab chiqish”, “Virusli va bakterial infeksiyalarni kompleks davolashda o‘simlik vositalaridan foydalanish imkoniyati”, “Koreyada an‘anaviy tibbiyot tarixi va an‘anaviy va sport tibbiyoti bo‘yicha onlayn dasturlar”, “Akupunktur va osteopatiya Ibn Sino tushunchalari bilan” “O‘z-o‘ziga yordam berish va uy sharoitidagi dorixonalar: Rose Spa misolida”, “Avitsennaning pulsdagnostikasini amalga oshirish tavsiyalari” mavzularida mahorat darslari ham o‘tkazildi.

Xalqaro konferensiyada “Abu Ali ibn Sino: o‘tmish falsafasi – kelajak taraqqiyot garovi” mavzusida xalq tabobati bo‘yicha navbatdagi II xalqaro ilmiy-amaliy anjumani “Abu Ali ibn Sino va taraqqiyot” — an‘anaviy XII Xalqaro Ibn Sino o‘qishlari doirasida o‘tkazish rejalashtirildi.

O‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya shubhasiz buyuk merosimni yanada kengroq o‘rganishga, an‘anaviy tibbiyot sohasini rivojlantirishga, iqtidorli yosh olimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etishga, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim muassasalarida o‘qitish sifatini yanada oshirishga va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

## «PSIXIATRIYA, NEVROLOGIYA, NEYROXIRURGIYA VA REABILITATSIYA: INTEGRATSIYA QIRRALARI» XALQARO KONFERENSIYASI O‘TKAZILDI

14-15 oktabr kunlari universitetda “Psixiatriya, nevrologiya, neyroxirurgiya va rehabilitatsiya: integratsiya qirralari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Xalqaro anjumanda Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston Respublikasi va O‘zbekiston tibbiyot oliy o‘quv yurtlari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot markazlarining yetakchi mutaxassislari ishtirok etdi.

Xalqaro anjumanning ochilish marosimida universitet rektori J.Rizayev, Boshqirdiston davlat tibbiyot universiteti rektori Valentin Pavlov, Ijevsk davlat tibbiyot akademiyasi rektori Aleksey Shklayev, I.Kant nomidagi Boltiqbo‘yi federal universiteti rektori Aleksandr Fedorov va boshqa mehmonlar va ishtirokchilar universitetda o‘tkazilayotgan xalqaro forumlarning o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni kengaytirish va klinik tibbiyotga nazariy ishlanmalarni joriy etish borasidagi ahamiyatini ta‘kidlab, konferensiya barcha ishtirokchilariga muvaffaqiyatli taqdimotlar tiladilar.

Anjumanning rasmiy ochilish marosimidan so‘ng Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Samarqand turizm markazi o‘rtasida tantanali ravishda hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Yalpi majlisdagi ma‘ruzalaridan so‘ng xalqaro konferensiyaning asosiy ishi 5 ta sho‘ba yig‘ilishlarida davom etildi. Unda ishtirokchilarni “Tibbiy rehabilitatsiyani rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari”, “Psixiatriya yordamini tashkil etishning dolzarb masalalari”, “Nevrologiya: nazariydan amaliyotga”, “Sport tibbiyotini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari va istiqbollari”, “Neyroxirurgiyada rehabilitatsiya: zamonaviy amaliyot va rivojlanish istiqbollari”, shuningdek, “Yosh olimlar” maxsus yig‘ilishi va yosh olimlar tanlovida dolzarb masalalarga bag‘ishlangan ma‘ruzalari tinglandi. Konferensiya materiallari Biomedicine and Practice xalqaro jurnalining maxsus sonida chop etildi.

Universitetda o‘tkazilgan “Psixiatriya, nevrologiya, neyroxirurgiya va rehabilitatsiya: integratsiya qirralari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya psixiatriya, nevrologiya, neyroxirurgiya fanlarini rivojiga, iqtidorli yosh olimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb etishga, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim muassasalarida klinik fanlarni o‘qitish sifatini oshirishga, shuningdek, amaliy sog‘liqni saqlash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga o‘zini salmoqli hissasini qo‘shadi.





## “UROLOGIYANING DOLZARB MASALALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT BIRLIGI” XALQARO ILMY-AMALIY KONFERENSIYASI

**3-4 oktabr kunlari universitetda “Urologiyaning dolzarb masalalari: nazariya va amaliyot birligi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.**

Xalqaro anjumanda Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Belarus Respublikasi, Tojikiston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston tibbiyot oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va tibbiyot markazlari xodimlari ishtirok etdilar.

Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining birinchi o‘rinbosari A.Inoyatov, Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori J.Rizayev, O‘zbekiston Respublikasi Urologlar ilmiy jamiyati raisi F.Akilov, Kursk davlat tibbiyot universiteti rektori V.Lazarenko (Rossiya) va boshqalar ishtirokchilarga tabrik so‘zlari bilan murojaat etib, ushbu anjumanni oliyog‘ohlar o‘rtasidagi

o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni kengaytirishdagi ahamiyatini ta’kidlab o‘tdilar va forum ishiga muvaffaqiyat tiladilar.

Xalqaro konferensiyaning asosiy qismi 7 ta yalpi majlisda davom ettirilib, unda ishtirokchilar “Endourologiya: urolitiaz va prostata bezining xavfsiz giperplaziyasini davolashdagi innovatsiyalar”, “Laparoskopik urologiya: O‘zbekiston urologlarining yutuqlari va xorijiy tajriba” yo‘nalishlari bo‘yicha ma’ruzalar tinglandi. “Urologiyada medikamentoz terapiya”, “Onkourologiya”, “Bolalar urologiyasi” mavzularida ma’ruzalar tinglandilar, shuningdek, “Yosh urologlar” va yosh olimlar tanlovi bo‘lib o‘tdi. Konferensiya davomida 80 dan ziyod urolog-amaliyotchi va yosh olimlarning

ma’ruzalari tinglandi. Konferensiya materiallari “Biomeditsina va amaliyot” xalqaro jurnalining maxsus sonida chop etildi.

Universitetimizda o‘tkazilgan “Urologiyaning dolzarb masalalari: nazariya va amaliyot birligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya urologiya fanini rivojlantirishga, yangi bilimlarni kundalik amaliyotga tatbiq etishga, iqtidorli yosh olimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etishga hamda tibbiyot oliy o‘quv yurtlari va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim muassasalarida urologiya fanini o‘qitish sifatini yanada oshirishga, respublikada sog‘liqni saqlash sohasini yanada takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasiz.

## NEYROXIRURGIYA BO‘YICHA II XALQARO TALABALAR KONGRESSI

**Ispaniyaning Granada shahrida neyroxirurgiya bo‘yicha II Xalqaro talabalar kongressi bo‘lib o‘tdi. Xalqaro kongress ishida universitetning Neyroxirurgiya kafedrasida xodimlari va talabalar faol ishtirok etdilar.**

Tantanalil ochilish marosimida Osiyo neyroxirurglar assotsiatsiyasi prezidenti, professor Yoko Kato (Yaponiya), Sharite gospitali neyroxirurgiya bo‘limi mudiri Piter Vaykozzi (Germaniya) kabi dunyoga mashhur neyroxirurglar ishtirokchilarni qutlab ma’ruzalar o‘qidilar. Shuningdek, Salema Abdulrauf, Fransisko Fernandes, Jorj Xanna, Rebekka Peres, Jorj Kristian Tonn, Valter Stammer kabi yetakchi neyroxirurg-olimlar ishtirokchilar uchun o‘z mahorat darslari o‘tkazildi.

Kongress dasturiga Samarqand davlat tibbiyot universitetining neyroxirurgiya kafedrasida

talabalar “Yosh neyroxirurglar” ilmiy jamiyati a’zolarining 8 ta ma’ruzasi kiritildi. Kongressda neyroxirurgiya kafedrasida mudiri, dotsent M.Aliyev va neyroxirurgiya to‘garagining faol ishtirokchisi, davolash fakulteti 5-kurs talabasi K.Quvondiqov “Miya exinokokkozli bemorlarni immunokorreksiya olovchi davolashning ahamiyati” mavzusida ma’ruza bilan so‘zga chiqdilar. Shuningdek, Neyroxirurgiya to‘garagi rahbari, tibbiyot fakulteti 5-bosqich talabasi X.Xolmurodova,

xalqaro fakultet talabalar Muhammadvasim Saidakbarxon, Mayrax Nur, Rabiya Zafar, Minaxil Hammad, Muhammad Zaryabxon; O.Xolmurodov, A.Akramova, D.Jonimqulova, M.Faruxova, D.Xudoyberdiyeva, magistr-rezidentlar B.Abduvoyitov va P.Abdulhakimov onlayn tarzda ishtirok etdilar. Taqdimot bilan chiqish qilgan ishtirokchilarga sertifikat va esdalik sovg‘alari topshirildi.



## SAMARQANDDA O‘ZBEKISTON-ROSSIYA UCHINCHI TA‘LIM FORUMI BO‘LIB O‘TMOQDA

26-oktabr kuni Samarqand shahrida o‘z ishini boshlagan O‘zbekiston-Rossiya uchinchi ta’lim forumida ikki davlat tomonidan 200 nafardan ortiq oliy ta’lim muassasalari rahbarlari, ishlab chiqarish kompaniyalari vakillari, vazirlik va idoralar mas’ullari ishtirok etmoqda.

Anjuman yalpi majlisining tantanalil ochilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tabrigi va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putin tabrigi forum ishtirokchilariga o‘qib eshittirildi. Tabriklarda ikki davlat ta’lim

sohasida olib borilayotgan hamkorlik aloqalari, uning yutuqlari va istiqbollari haqida, ushbu nufuzli anjuman natijasi mamlakatlar o‘rtasida sohadagi aloqalar yangi formatda o‘tishi va jadallashuviga xizmat qilishi alohida ta’kidlandi.

Forum doirasida Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori J.Rizayev boshchiligidagi delegatsiya Rossiya Federatsiyasining qator oliyog‘ohlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish borasida samarali muzokaralarni olib bordilar.





## SAMARQAND SHAHRI KUNI KENG NISHONLANDI

1996 yil 18-oktabr kuni Samarqand shahriga “Amir Temur ordeni” berilishi munosabati bilan “Samarqand shahri kuni” bayrami nishonlandi.

Tadbirlar erta tongdan Sohibqiron Amir Temur maqbarasini ziyorat qilish bilan boshlandi, buyuk bobokalonimiz xotirasiga Qur'on tilovati qilindi. Mazkur marosimda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov, viloyat va shahar faollari, oliy ta'lim muassasalari rahbariyati, shu jumladan Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori Jasur Rizayev boshchiligida professor-o'qituvchilar Sohibqiron Amir Temur haykali poyiga gul qo'yish marosimida ishtirok etdilar.

Asosiy bayram tadbirlari o'tkazilgan A.Navoiy ko'chasida Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi tomonidan tashkil qilingan sport musobaqalari, milliy taomlar va kitoblar ko'rgazmalari tashkil qilindi. Iste'dodli talabalarining ijodiy chiqishlari bayramona xushkayfiyat bag'ishladi.



## REKTOR VA IQTIDORLI TALABA- YOSHLAR UCHRASHUVI

**14-oktabr kuni universitet rektori J.Rizayevning faol iqtidorli talaba-yoshlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.**

Universitet rektori talabalarga Prezidentimizning yoshlar haqida bildirgan fikrlari, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, universitetda ular uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida batafsil gapirib berdi, talaba-yoshlarni ilmiy va jamoat ishlarida faollikka chaqirdi. Universitet rektori talaba-yoshlarni har qanday tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashini alohida ta'kidlab o'tdi.

Uchrashuvda o'zining namunali o'qishi, ilmiy va jamoat ishlarida tengdoshlariga o'mak bo'layotgan 75 nafar talabaga joriy qilingan “Rektor stipendiyasi” sertifikatlari Universitet rektori tomonidan tantanali ravishda topshirildi.

So'zga chiqqan talabalar yaratilayotgan imkoniyatlar va bildirilgan ishonch uchun Universitet rektoriga o'z minnatdorchiliklarini bildirib o'tdilar.



Samarqand shahri kuni munosabat bilan SamDTUning tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti dekanati va jamoasi hamda tibbiy biologiya va genetika kafedrasini professor-o'qituvchilari, Yoshlar Ittifoqi yetakchilari tomonidan 3-son talabalar turar joyida “O'tmishi sharafli, buguni saodatli, kelajagi abadiy shahar” shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.



## Ona tilim

Kelib ketdi necha dunyolar,  
Kuldi hayot, yig'ladi o'lim.  
Sen deb qurbon bo'ldi bobolar,  
Ular ketdi, sen qolding, tilim.  
Belanchaging uzra Koshg'ariy,  
Kuylab o'tdi qadim navoni.  
Va navqiron yaproqlaringga,  
Dil qonini berdi Navoiy.  
Samarqanddan Bobur ketarkan,  
Dilda bo'g'ib hasrat sasini,  
Olib ketdi ona yurtidan,  
Turkiy tilim, birgina seni.  
Mashrabmas, sen osilding dorga,  
Nodiramas, sensan so'yilgan,  
Hoziqningmas, sening, ey tilim,  
Boshing ayru, ko'zing o'yilgan.  
Ammo dushman o'ldirgan botir,  
Tirilgandek yana qasosga,  
Mangu borsan va mangu qodir,  
To'dirmoqqa yerni ovozga.  
Vatan uchun baxsh etib jonni,  
Kechib olov, kirib daryoga,  
Farzandlaring to'kkan har qonni,  
Shimirding sen o'xshab giyohga.  
Ona tilim, omon bo'l mangu,  
Sen borsan-ki men ham o'lmayman,  
Tildan qolsam, seni Oybekday,  
Men ko'zlarim bilan so'ylayman.

Xurshid Davron

## O'ZBEKISTON

*Ey ona Vatanim, sen mening Ka'bam,  
Senga jonim fido aylasam ham kam.  
Menga tinchlik bermas qo'limda qalam,  
Bitmagan dostonim - O'ZBEKISTON!*

*Bobimiz Temurning qondoshlari bor,  
Avloding shod-xurram hamda baxtiyor.  
Ulg'ayib biz yoshlar senga madadkor,  
Mustaqil diyorum - O'ZBEKISTON!*

*Bog'ingda sayraydi sarmast bulbuling,  
Tog'ingda oqadi zilol suvlaring.  
Vohayu, vodiylar paxtazor, doning,  
Chamanzor bo'stonim - O'ZBEKISTON!*

*Zulfiya, To'maris, Nodira izing,  
Yuksak cho'qqilarni zabt etgan o'zing.  
Ta'rifihsizga ojizdir Muxlisa qizing,  
Onajon makonim - O'ZBEKISTON!*

**Xazratqulova Muxlisa  
Pediatriya fakulteti  
418-guruh talabasi**

## Universitet talabalari Malayziya klinikasida amaliyotda

Universitetning bir guruh talabalari Xalqaro ta'lim fakulteti dekani S.Mamaradjabov boshchiligidagi Malayziyaning Selangor shahrida joylashgan Al-Sulton Abdulloh nomidagi Universitet klinikasida amaliyotni boshladilar.

Talabalar Malayziyadagi aholiga ko'rsatilayotgan tez tibbiy yordam ko'rsatish tajribasi bo'yicha kursni mazkur klinikada xorijlik mutaxassislar rahbarligida o'taydilar.

Universitetimiz vakillari malayziyalik oliygoch professori Dr. Sabariah Faizah Jamaluddin "Malayziyada tez tibbiy yordam tizimi" bo'yicha ma'ruzalarida ishtirok etdilar.



## IT-dasturlash va Start-up loyihalarini joriy qilish bo'yicha uslubiy seminar

Universitetda IT-dasturlash, dizayn va Start up loyihalarini joriy qilish sohasida o'zini rivojlantirishning istiqbolli imkoniyatlariga bag'ishlangan uslubiy seminar bo'lib o'tdi.

Tadbirni "Next Generation" kompaniyasi asoschisi X.Mirzayev olib bordi.

Seminar davomida tinglovchilarga sun'iy intellekt va uning tibbiyotda qo'llanilishi, bugungi kunda IT-texnologiyalar muhimligi, tibbiyot sohasidagi Start-up loyihalar va ularni amalga oshirish yo'llari bilan bog'liq asosiy jihatlar ko'rib chiqildi.

Seminar davomida talabalar o'zlarini qiziqirgan savollarni berish va ularga professional javob olish



## 1-SON DAVOLASH FAKULTETI



## Birinchi kurs talabalari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi

Joriy yilning oktabr oyida Samarqand davlat tibbiyot universitetida 1-kursga o'qishga qabul qilingan talabalar bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

Uchrashuvlarda Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor E.Tangirov, rektor maslahatchisi E.A.Aripov, universitet profilaktika noziri O.Eshmurotov, psixolog D.Djurayeva, fakultetlar dekanlari va dekanatlar xodimlari qatnashdilar.

Mazkur tadbirlarda so'zga chiqqanlar talaba-yoshlarga o'qish jarayoni, odob-axloq, kiyinish madaniyati, universitetda tashkil qilingan barcha shart-sharoitlar haqida tushunchalar berdilar.

Uchrashuv ochiq muloqot tarzida olib borildi, talabalar o'zlarini qiziqirgan savollariga javob oldilar.



### SAMDTU TALABALARI — SPORT MUSOBAQALARI G‘OLIBI

Joriy yilning 13-14 oktabr kunlari Samarqand viloyati oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Universiada -2022” sport musobaqalarining 2-bosqich saralash musobaqalari o‘tkazildi.

Mazkur musobaqalarda universitetimiz talabalari faol qatnashib, basketbol sport turi bo‘yicha erkaklar jamoasi 2-o‘rin, gandbol sport turi bo‘yicha ayollar jamoasi 3-o‘rinni, voleybol sport turi bo‘yicha erkaklar va ayollar jamoasi 2-o‘rin, futbol sport turi bo‘yicha 3-o‘rinni qulga kiritishga muvaffaq bo‘ldilar.

Natijada, saralab olingan talabalarimiz “Universiada” sport musobaqalarining hududiy saralash bosqichida viloyat terma jamoasi tarkibida qatnashadilar.



### “GENDER TENGLIK, XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH” MAVZUSIDA DAVRA SUHBATI O‘TKAZILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan belgilab berilgan 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy Dasturiga asosan joriy yilning 25-oktabr kuni Samarqand davlat tibbiyot universitetida talaba-qizlar ishtirokida “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” shiori ostida “Gender tenglik, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish” mavzusida davra suhbatini o‘tkazildi.

Davra suhbatida universitetning xotin-qizlar maslahat kengashi, professor-o‘qituvchilar, Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti dekan o‘rinbosari, Samarqand viloyati IIBdan universitetga birlashtirilgan profilaktika inspektori, shuningdek, taklif etilgan ichki ishlar xodimi tomonidan gender tenglik masalalari, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish borasida olib borilayotgan ishlar, qabul qilingan qonunlar, qonun osti hujjatlari, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqei oshirish, oilalar tinchligi va mustahkamligiga erishish, notinch oilalar, jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderlari berilishi, ijtimoiy rehabilitatsiya markazlari faoliyati to‘g‘risida taqdimotlar qilinib, ma‘lumotlar berildi.



### UNIVERSITETDA O‘TKAZILGAN SPORT MUSOBAQALARINING G‘OLIBLARI TAQDIRLANDILAR

Universitetning professor-o‘qituvchilari va talabalari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va targ‘ib qilish maqsadida “Kasaba uyushmalari” va “Tibbiyot xodimlari” kunlariga bag‘ishlab erkaklar va ayollar jamoalari o‘rtasida sportning “mini-futbol” va “shaxmat” turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi.

Universitet fakultetlari, kafedralar hamda akademik litsey xodimlaridan iborat 16 ta jamoa o‘rtasida mini-futbol musobaqalari o‘tkazildi. Final o‘yinida universitet rektori J.Rizayev boshchiligidagi universitet rahbariyati vakillari ishtirok etdilar.

O‘tkazilgan bellashuvlar natijasiga ko‘ra 1-o‘rinni universitet qoshidagi akademik litsey jamoasi, 2-o‘rinni 2-son davolash fakulteti jamoasi, 3-o‘rinni universitet hisobxona jamoasi egalladi.

G‘olib jamoalar a‘zolariga ajoyib o‘yin uchun minnatdorchilik bildirildi, diplom va qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

Shuningdek, universitetning erkaklar va ayollar jamoalari a‘zolari o‘rtasida o‘tkazilgan shaxmat bo‘yicha musobaqa g‘oliblari ham diplomlar va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Universitet xodimlari va talabalari o‘rtasida sog‘lomlashtirishga qaratilgan sport musobaqalarini o‘tkazish muntazam ravishda davom ettiriladi.

### “ISLOHOTLAR BILIMDONI” VIKTORINASI O‘TKAZILDI

Universitet xotin-qizlar maslahat kengashi faollari hamda 2-son davolash ishi, stomatologiya, tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakultetlar dekan maslahatchilari tomonidan 3-son talabalar turar joyida “Xalqaro qizlar kuni”ga bag‘ishlab talabalar o‘rtasida “Islohotlar bilimdoni” viktorinasi tashkil etildi.

Viktorinada bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarni, yoshlarni, talaba-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir qabul qilingan qonunlar, qonun osti hujjatlari, yaratilayotgan imkoniyatlar to‘g‘risida ishtirokchilarning fikr-mulohazalari eshitilib baholandi.

Barcha ishtirokchilarning bilimlari adolatli baholanib, tadbir tashkilotchilari tomonidan g‘oliblar taqdirlandi.



## OCHIQ MA'RUZA E'LONLARI

**Samarqand davlat tibbiyot univesiteti farmakognoziya va farmatsevtik texnologiyalar kafedrasida 2022 yil 24 noyabr kuni Farmakognoziya fanidan soat 11:10 da kafedraning ma'ruzalar zalida Farmatsiya fakultetining 306, 307, 308, 309-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.**

**Mavzu:** «Tarkibida efir moylari bo'lgan dorivor o'simliklar va maxsulotlar»

**Ma'ruzachi:** Ph.D. N.Qodirov

**Manzil:** SamDTU Farmakognoziya va farmatsevtik texnologiyalar kafedrasining ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Farmatsiya fakultetining 306, 307,308, 309-guruh talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** Phd. N.Qodirov.

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti "Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya" fakulteti gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrasida 2022 yil 18 noyabr kuni soat 16:15 da ochiq ma'ruza e'lon qiladi**

**Mavzu:** «Jinsiy sistema»

**Ma'ruzachi:** Gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrasida mudiri, dotsent F.Oripov

**Manzil:** SamDTU yangi o'quv binosi 12-ma'ruza zali

**Taklif qilinganlar:** Tibbiy biologiya fakulteti 2 kurs 201-204-guruh talabalari, kafedra xodimlari, magistrlar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**SamDTU 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida 2022 yil 8 noyabr kuni Pediatriya fanidan soat 11:10 da Pediatriya fakulteti 421-423 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.**

**Mavzu:** «Острый пиелонефрит. Этиопатогенез, факторы способствующие к развитию заболевания, диагностика. Клинические проявления пиелонефрита и тактика лечения».

**Ma'ruzachi:** SamDTU 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida mudiri dotsent, t.f.d. L.Muxammadiyeva

**Manzil:** SamDTU 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida ma'ruza zali

**Taklif qilinganlar:** Pediatriya fakulteti 421-423-guruh talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**2022 yil 1 noyabr kuni 2-Ichki kasalliklar va kardeologiya kafedrasida mudiri E.Tashkenbayeva tomonidan «Siydik cho'kmasidagi o'zgarishlar. Patologik siydik cho'kmasini qiyosiy tashxislash. Pielonefrit, glomerulonefrit, interstisial nefrit qiyosiy tashxislash. UASH taktikasi. Surunkali buyrak kasalligi. Profilaktika va davolash tamoyillari» mavzusida ochiq ma'ruza o'tqaziladi.**

Barcha professor – o'qituvchilar, magistr, klinik ordinatorlar va talabalar taklif etiladi.

**Manzil:** RShTTYoIM Samarqand filiali, Shoshilinch terapiya bo'limi, 2-Ichki kasalliklar kafedrasida ma'ruzalar zali (7-qavat).

## OCHIQ MARUZA

**Mavzu:** Markaziy asab tizimi yallig'lanish kasalliklari

**Maruzachi:** t.f.d dotsent Sh.Niyozov

**O'tkazilish joyi:** Nevrologiya kafedrasida maruza zali.

**O'tkazilish sanasi:** 03.11.2022

## SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

## 1-son Davolash fakulteti

2-son xirurgik kasalliklar kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

## 2-son Davolash fakulteti

4-son ichki kasalliklar kafedrasida mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

Sud tibbiyoti kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

## Pediatriya fakulteti

1-son pediatriya va neonatologiya kafedrasida, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin.

## Tibbiy pedagogika va oliy hamshiralik ishi fakulteti

Pedagogika-psixologiya kafedrasida, assistent lavozimiga -1 o'rin;

Fizika, biofizika va tibbiy fizika kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin.

**Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti**

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Fiziologiya kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Patologik fiziologiya kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin.

## Farmatsiya fakulteti

Biologik kimyo kafedrasida, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

Biologik kimyo kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin.

## Stomatologiya fakulteti

Bolalar stomatologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Bolalar stomatologiya kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Terapevtik stomatologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

## Diplomdan keyingi ta'lim fakulteti

Akusherlik va ginekologiya kafedrasida neonatologiya kursi bilan, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

SamDTU ilmiy kotibi

*Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.*

*Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.*

*Katta o'qituvchi yoki Assistent o'qituvchi lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.*

*Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.*

**Manzil:** Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy

## Samarqand davlat tibbiyot universiteti «SamDTU Books» mobil ilovasi

- «SamDTU Books» ilovasi

SamDTU Elektron kutubxona sayti

**e-library.sammu.uz** bilan bevosita

integratsiya qilingan bo'lib, Elektron

kutubxonadagi mavjud kitoblarni

elektron tarzda yuklab olish hamda

ilovani o'zida mutolaa qilish imkoniyati mavjud.

- Ilovani quyidagi **play.google.com (Android)** hamda

**apple.com (iOS)** manzilidan yuklab olishingiz mumkin.



Tahririyat raisi:

**J.A. RIZAYEV**

Bosh muharrir:

**E.S. TANGIROV**

Tahrir hay'ati:

G.U.Lutfullayev,

S.A.Karabayev, A.A.Axmedov

J.F.Kadirov, B.E.To'xtarov,

F.A.Daminov, S.E.Mamaradjabov,

N.M.Shavazi.

## SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

**O. Muratov**

Operator va sahifalovchi:

**Sh.Zamonov**

Fotomuxbir:

**O.Axmedov**



Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

INDEKS: 5539

**MANZIL:** Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.

Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75

e-mail: [shifokor@sami.uz](mailto:shifokor@sami.uz), [sammi@sammi.uz](mailto:sammi@sammi.uz)

Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.

Nashrga ruxsat berildi: 2022 yil, 26-oktabr Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 109